



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2678

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

MODERN THREATS TO THE SPIRITUAL MATURITY OF YOUTH

Umida Bo'ranova¹

Head of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment, Yangihayot District, Tashkent city

DOI: 10.5281/zenodo.15767224

Article History	Abstract
Received: 15.05.2025	This article discusses contemporary threats affecting the spiritual development of youth and explores the underlying reasons for their emergence. The author emphasizes that global processes, technological advances, and the expanding flow of information can negatively impact traditional values, accelerating their erosion. Economic hardships, social inequality, and extremist ideologies are also identified as factors contributing to contradictory trends within young minds. The article underlines the importance of improving the spiritual and moral education system, fostering critical thinking, and strengthening the cooperation between families and society. In addition, it highlights the need to enhance the quality of education, provide comprehensive socio-economic support for youth, and harmonize national and universal values to reinforce young people's spiritual potential. The author concludes that only a holistic approach can enable the younger generation to effectively confront modern challenges and attain a profound level of spiritual maturity.
Accepted: 27.06.2025	

Keywords: Youth spiritual development, spiritual education, globalization, information threats, technological advancement, social inequality, extremism, national values, critical thinking, family-society cooperation.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Head of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment, Yangihayot District, Tashkent city, Uzbekistan

YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTINING ZAMONAVIY TAXDIDLARI

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Yoshlar ma'naviy kamoloti, ma'naviy tarbiya, globallashuv, axborot xurujlari, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy tengsizlik, ekstremizm, milliy qadriyatlar, tanqidiy tafakkur, oila va jamiyat hamkorligi.

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi zamonaviy tahdidlar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bu boradagi chora-tadbirlar xususida so'z yuritiladi. Global jarayonlar, texnologik taraqqiyot va axborot oqimining ortishi yoshlar ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazishi, an'anaviy qadriyatlar zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy tengsizlik va ekstremistik g'oyalar kabi omillar ham yoshlar ongida ziddiyatli jarayonlar keltirib chiqaradi. Maqolada ushbu tahdidlarni kamaytirish yo'llari sifatida ma'naviy tarbiya jarayonini takomillashtirish, axborot xurujlariga qarshi turish, tanqidiy tafakkurni rivojlanтирish hamda oila va jamiyatning hamkorligini kuchaytirish kabi omillar muhimligi ta'kidlanadi. Jumladan, ta'lism sifatini yaxshilash, yoshlarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlar ma'naviy kamolotini mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Yoshlar ma'naviy kamoloti masalasi bugungi kunda jamiyatimizning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ma'naviyati yuksak, ongli, vatanparvar yoshlar keljak poydevorini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion taraqqiyotga erishish kabi jihatlarda tayanch bo'lishi muqarrar. Biroq global miqyosdagi o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, globallashuv, ommaviy axborot vositalarining keng quloch yozishi va raqamli zamon sharoitida vujudga kelayotgan noan'anaviy ma'naviy muhit ko'plab zamonaviy tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ma'naviy intilishlarini bevosita shakllantiruvchi ijtimoiy-ma'naviy omillar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqolada shu zamonaviy tahdidlar xususida so'z yuritiladi, ularning kelib chiqish sabablarini ilmiy nuqtayi nazardan baholashga harakat qilinadi, shuningdek, yechim sifatida qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozimligiga doir mulohazalar ilgari suriladi.

Avvalo, bugungi kunda texnologik taraqqiyotning misli ko'rilmagan darajada rivojlanishi yoshlar ma'naviyatiga, ularning ruhiy olamiga jiddiy ta'sir o'tkazayotganini ta'kidlash zarur. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tezkor ma'lumotlar almashinuvi, masofaviy muloqot, cheksiz axborot oqimini taqdim etayotgani bilan birga, turli ma'naviy zararlar ehtimolini ham kuchaytirmoqda. Yoshlar, ayniqsa, o'spirinlar o'ziga xos ruhiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo'lgani uchun, ularga ortiqcha ta'sir o'tkazish osonroq kechadi. Internetdagi nomaqbtl kontent, buzuq g'oyalarni targ'ib etuvchi sahifalar, nafrat va ekstremizmni targ'ib qiluvchi jamoalar yoshlar dunyoqarashiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Virtual makonning kengayishi va cheklanmagan axborot tarqalishi ularning madaniy, ma'naviy qadriyatlarini ta'sirchan shakllantiruvchi an'anaviy institutlar – oila,

maktab, mahalla va jamiyatni bir qadar chetga surishi yoki ularni yetarli darajada e'tiborsiz qoldirishi mumkin[1,86]. Natijada yoshlar duch kelayotgan ko'plab tahdidlar ortidagi asosiy omil shu raqamli muhit ta'siri ekanini izohlash mumkin. Shu bois, yoshlar o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirish, bu sohada sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, internetdan ma'rifiy hamda ijobiy ma'naviy manba sifatida foydalanish yo'llarini ko'rsatish juda muhimdir.

Ikkinci muhim tahdid bu – globallashuv jarayonining muqarrar natijasi sifatidagi madaniy hamda ma'naviy integratsiyadir. Globallashuv, tabiiyki, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jabhalarda turli xalq va millatlarning o'zaro yaqinlashuvini kuchaytiradi. Biroq bu jarayon doimo ijobiy samara keltirmaydi, chunki yoshlar o'z milliy qadriyatlari, an'anaviy ma'naviyat asoslarini to'liq anglab ulgurmasdan, chetdan kirib kelayotgan turli mafkuraviy ta'sirlar girdobiga tushib qolishlari ehtimoldan holi emas[2,52]. Masalan, G'arb ommaviy madaniyati, reklama va shou-biznesning namunalari yoshlar ongiga o'ziga xos estetik tamoyillar orqali singishi, milliy odob-axloq me'yorlaridan yiroqlashishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda globallashuv jarayonini bir tamonlama qabul qilish, o'zlikni unutish, milliy g'ururni zaiflashtirish va begonaparastlikning kuchayishi kabi ko'rinishlar paydo bo'ladi. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni, ajdodlar merosini, tarixiy xotirani, boy madaniy an'analarni chuqur o'rganish, ularni yoshlar ongiga muntazam singdirish uchun tizimli pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borilishi talab etiladi[3,85]. Globallashuvdan to'g'ri foydalanish, undan ilm olish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish bilan birga, milliy o'ziga xoslikni asrab qolish – yoshlarning ma'naviy tarbiyasida muhim o'rinn tutadi.

Yana bir jiddiy tahdid ommaviy axborot vositalarining qudratiga bog'liqdir. Televideniye, radio, bosma nashrlar va ayniqsa, internet-portallar hamda ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan kontent hech qanday sinovdan o'tmasligi, noto'g'ri baholashlar, soxta ma'lumotlar yoki ma'lum bir mafkuraga xizmat qiluvchi targ'ibotlar shaklida bo'lishi mumkin. Yoshlar ko'p vaqtlarini virtual olamda o'tkazishi sababli, ommaviy axborot vositalari ular ongiga bevosita ta'sir etadigan qurolga aylanmoqda[4,77]. Xususan, "infotainment" (axborot+ko'ngilochar) uslubida yaratilgan ko'rsatuvar yoshlar orasida ommalashgan bo'lib, ularning dars o'qish, ilm olishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi, hayotga jiddiy yondashuvni susaytirishi mumkin. Bunday tahdidlarni kamaytirish yo'li sifatida axborot xurujlari oldini olish, ommaviy axborot vositalari bilan ishslash madaniyatini rivojlantirish hamda tanqidiy fikrashni kuchaytirish lozim[5,18]. Tanqidiy tafakkur – hozirgi zamon tahdidlariga bardosh beradigan kuchli qalqon hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar ommaviy axborot vositalaridan faqat ko'ngilochar maqsadlarda emas, balki bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, milliy va jahon madaniyati durdonalarini o'rganish, ijtimoiy hayotdagi so'nggi o'zgarishlardan boxabar bo'lish uchun ham foydalana olishlari kerak.

Ma'naviyatga tahdid solayotgan yana bir omil bu – iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy tengsizliklardir. Jamiyatda iqtisodiy rivojlanish darajasi sust yoki ijtimoiy taboqalanish

kuchli bo'lsa, yoshlar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yishda, hayotiy yo'nalishlarini tanlashda muammolarga duch kelishlari mumkin. Moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, kambag'allik yoki kutilganidan past daromad yoshlar orasida turli norozilik kayfiyatları, stress, tushkunlik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda yoshlar yot g'oyalar, radikal qarashlar, noqonuniy faoliyatlarga moyil guruuhlar ta'siriga tushib qolish xavfi mavjud. Zero, ma'naviy kamolotga erishishning bir sharti – insonning ijtimoiy farovonligidir. Agar yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topa olmasa, muammolarini qonuniy yo'l bilan hal qilishga umid qilmasa, u holda ma'naviy qadriyatlar tizimida ham chayqalishlar paydo bo'ladi. Shu bois, davlat va jamiyat iqtisodiy islohotlar orqali yoshlar uchun munosib turmush sharoitlari yaratishga e'tibor qaratishi muhim. Turli ijtimoiy dasturlar, startap loyihamalarini qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash, talabalar va bitiruvchilarga ish o'rinnari yaratish, yosh tadbirkorlarga imtiyozlar berish kabi choralar bilan ularning hayotiy motivatsiyasi, ma'naviy qarashlari mustahkamlanadi.

Shuningdek, ta'lim tizimining ham yoshlar ma'naviy kamolotidagi o'rni beqiyosdir. Ta'lim jarayonida faqat ilm berish bilan cheklanmasdan, yoshlar qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, halollik, adolatparvarlik, mehr-oqibat kabi tuyg'ularni rivojlantirish darkor. Biroq bugungi texnologik jarayonlar, yangicha boshqaruв uslublari va turli islohotlar davomida ta'lim tizimida ham ayrim muammolar kuzatilishi mumkin. O'quv dasturlarining an'anaviyligi, amaliy tajribaning yetarli emasligi, o'qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirmslik yoki yoshlar bilan ishlashda zamon talablariga mos bo'lмаган metodlarning qo'llanilishi ma'naviy tarbiya jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ta'lim muassasalarida mustahkam ilmiy-nazariy asosga tayangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv mashg'ulotlar, ko'rgazmali-metodik vositalar va ijodiy yondashuvlardan keng foydalanish zarur. Ta'lim jarayonini innovatsion usullar bilan boyitish, yoshlarning qiziqishlarini rag'batlantirish, ijodiy va kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish yo'llarini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, oila va mahalla muhitining ham yoshlar ma'naviy kamolotiga ta'sirini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Zamonaviy sharoitlarda ayrim oilalarda tarbiya jarayoni orqa planda qolib ketishi, ota-onalar farzandlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga kam vaqt ajratishi, ularni ma'naviy barkamollik sari yo'naltirishda sustkashlik qilishi mumkin. Bunday sharoitda yoshlar ko'proq virtual do'stlar, ijtimoiy tarmoqdagi jamoalar va turli ommaviy ko'ngilochar kontent ta'siriga tushib qoladilar. Natijada ular o'z oilasidagi an'analar, mahalla va ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy jarayonlar bilan bo'ladigan bevosita muloqotdan yiroqlashishi, haqiqiy hayotdagi insoniy munosabatlar o'rniga virtual muloqotga ko'proq tayanish holatlari kuzatiladi. Shu bois, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla faollari, diniy va ma'naviy soha xodimlari, yoshlar yetakchilari o'zaro hamkorlikda tarbiya masalasini izchil yo'lga qo'yishi, oilalarda sog'lom ma'naviy muhit yaratish, mahallada yoshlar bilan doimiy muloqotda bo'lish, ular muammolariga qulog tutish muhimdir. Shuningdek, oila va jamiyat orasidagi ko'prik bo'lgan mahalla, nodavlat notijorat

tashkilotlari, yoshlar markazlari va boshqa ijtimoiy institutlar ma'naviy tarbiyani kuchaytirish yo'lida faol qatnashsa, turli to'garaklar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, amaliy seminarlar tashkil etsa, yoshlarning e'tiborini ijobiy faoliyatlarga jalb qilsa, bugungi zamonaviy tahdidlar ham salbiy oqibatlarini kamaytirishi mumkin bo'ladi.

Zamonaviy tahdidlar davrida yoshlarni har tomonlama ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash masalasida dinning roli ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Diniy qadriyatlar, odob-axloq normalari, yetuk ma'naviy me'yorlarni targ'ib etuvchi mafkuraviy asos sifatida hamisha muhim o'rin tutib kelgan. Biroq bu borada ham ehtiyotkorlik zarur, chunki haddan tashqari mafkuraviy yopiq doira yoki mutaassiblik, ekstremistik ko'rinishlar yoshlarni ilmdan, ijoddan va sog'lom tafakkurdan chetlashtirishi mumkin. Shuning uchun diniy ta'lim va ma'rifikat berishda zamonaviy ilm-fan, milliy urf-odatlar, davlat va jamiyatning konstitutsiyaviy tuzumi bilan uyg'unlashtirilgan holda, ma'rifiy tamoyillarga rioya qilinishi muhim. Yoshlar o'z e'tiqodlarini mustahkamlash bilan birga, bilim olishga, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga, ijtimoiy munosabatlarda bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga sodiq bo'lishga undalishi kerak. Ana shu tarzda diniy-ma'rifiy tarbiya va milliy qadriyatlar uyg'unlashganda, yoshlar zamonaviy tahdidlarga munosib javob bera oladigan yetuk ma'naviyat sohiblariga aylanishadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma'naviy kamolotining zamonaviy tahdidlari turli ko'rinishda namoyon bo'lib, ular o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq aspektlariga ega. Ular yoshlarni ongida an'anaviy tarbiya va zamonaviy hayot talablari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarishi, hamda yoshlarni tomonidan o'zlikni topish va saqlash masalasida murakkabliklar tug'dirishi mumkin. Bunday tahdidlar jiddiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan ma'naviy tarbiya jarayonlarini kuchaytirish, axborot xurujlari oldini olish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ta'lim sifatini zamon talabiga mos ravishda yuksaltirish, yoshlarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi kompleksi chora-tadbirlar zarur. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorligi orqali ma'naviy tarbiya jarayoni izchil yo'lga qo'yilgandagina, kelajak avlodni mustahkam, yuksak ma'naviyatli, ongli va milliy g'ururiga sodiq insonlar qilib voyaga yetkazishimiz mumkin bo'ladi. Aynan shu yo'l bilangina zamonaviy tahdidlarga munosib javob berish va yoshlarni ma'naviy kamolotining uzviy ravishda davom etishini ta'minlash mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov, A. Ma'naviyat va ma'rifikat asoslari / A. Abduqodirov. – Toshkent: Yangi asr avlodni, 2019. – 248 b.
2. Rixsiyev, S. Globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyasi muammolari / S. Rixsiyev // Ma'rifikat. – 2021. – №6. – B. 22–25.
3. Ibragimov, Z. Axborot xavfsizligi va ma'naviy tahdidlar / Z. Ibragimov. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 184 b.

4. Hayitov, B. Ma'naviy tarbiya: nazariya va amaliyot / B. Hayitov, G. Begimqulova. – Toshkent: Fan, 2018. – 312 b.

5. Rustamov R.R. Geopolitik raqobat sharoitida ma'naviy targ'ibot sistemasidagi atributiv o'zgarishlar: muammolar va yechimlar: Fals.d. diss.- Samarqand: SamDU, 2019.58-bet.